

**Choriyeva Zuhra Akbar qizi**

*Samarqand Davlat Universiteti Maktabgacha va  
Boshlang'ich ta'lif fakulteti 4-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy olamini yuksaltirishdan iborat. Boshlang'ich sinflarda qissa va hikoyalarni o'qitishni, ularga matn haqida tushuncha berib borilishida va fikr yuritishda katta ahamiyatga ega. Qissa va hikoyalar bilan ishlash o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish va ulardag'i so'zdan foydalanish ehtiyojidan kelib chiqadi. Masalan bir so'zning imlosi, ma'nosi, ma'nodosh, qarama-qarshi ma'nosi, uyadoshlarini bilishni taqozo etadi. Xalq og'zaki ijodininig qissa va hikoya janrlari orgali xalqimizning boy tarixi, tili, dini va madaniyati bilan tanishtirish imkonini beruvchi omildir.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, qissa, hikoya, badiiy olam, o'quvchilar savodxonligi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy olamini boyitish maqsadida xalq og'zaki ijodining namunalari bilan tanishtirib boriladi. Bunda, o'quvchilar yoshiba mos holda qissa va hikoyalar tanlanadi.

Qissa – badiiy adabiyotda epik janr turlaridan biri hisoblanadi. Qissa odatda bir va bir necha shaxslar taqdiringa oid turli voqealarni o'ziga asos qilib olishi bilan epik turning hikoya hajmi va mazmunining nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissalar hayot murakkabliklarini hikoyaga nisbatan kengroq, xarakter hamda voqelik ko'lamenti romanga qaraganda kamroq qamrab oladi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida qissa qatnashuvchilarning xulq-atvorini, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-biriga bo'lgan munosabatini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar. Qissani o'quvchilarga o'rgatishda o'qituvchi turli turli xil metodlardan foydalanishi lozim. Masalan qissa o'qib bo'lingach, o'quvchilardan o'z fikrlarini bayon etishni so'rash, so'ng o'quvchilarning hayolida nima aks etganini bilish uchun o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga bittadan list tarqatiladi va rasm chizish so'raladi. Qissa ustida ishslashda bolalarni qissa o'qitishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Qissa aytish o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi, ona tiliga muhabbatni tarbiyalaydi. Darhaqiqat, vatan ostonasi maktabdan boshlanadi. Muhtaram Prezidentimizning yuqorida fikrlariga nazar tashlasak haqiqatdan ham o'quvchilar mакtabga bilim olish uchun kelishadi. Jajji o'g'il-qizlarimiz endigina hayot ostonasi deb atalmish mакtabga – ilm maskaniga qadam qo'yishlari bilan mакtab, ona vatan, ustoz, kitob, tabiat va boshqa tushunchalar bilan batafsil tanishib borishadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yurtimizda ta'lif sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqlasa, kelajak yosh avlodni har jihatdan yetuk barkamol shaxs qilib tarbiyalashni boshlang'ich sinfdan boshlashimiz kerak. Ma'lumki, kelajak yosh avlodimiz boshlang'ich ta'lifda bilimlarni mustahkam egallasa, uning ertangi kuniga poydevor bo'lishi shubhasizdir. Shuning uchun boshlang'ich ta'lifda bolaga bilim berishda va badiiy boyitishda qissa va hikoyalardan foydalanish samarali natija beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun hikoya janri ham qissa kabi muhim ahamiyatga ega janrdir. Hikoya biror-bir davr bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilar

qahramonlarning ma’naviyatiga bo’lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong’u tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo’la boshlaydilar.Ularda go’zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg’usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Masalan, 3-sinfda “Jaloliddin Manguberdi” hikoyasida Chingizzon va uning qo’shinlariga nisbatan nafrat uyg’otilsa Jaloliddin Manguberdining xatti-harakati orqali Ona Vatanga mehr-muhabbat uyg’otiladi,uning taqdiri orqali o’z ajdodlaridan faxrlanish tuyg’usi paydo bo’ladi. Hikoyani o’qish darsida o’quvchilar ma’nosiga tushunmaydigan so’z va iboralar ma’nosini tushuntirish ham muhim,aks holda, ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So’z ma’nosini tushuntirishga ko’p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushunishda eng zarur bo’lgan so’zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi. Hikoyani o’qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va o’quvchilar nutqini o’stirish markaziy o’rin egallaydi. Hikoya o’qilgach, o’quvchilar o’z fikrlarini aytish uchun tayyorlanishiga vaqt berish talab etiladi. O’qilgan asar yuzasidan beriladigan savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan yoqmagani, hikoyadagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta’sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishidan iborat.Boshlang’ich sinf o’quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o’qish darslarida amalga oshiriladi.Boshlang’ich sinf o’qish darslarining, ayniqsa birinchi sinfdagi o’qish darslarining maqsadi o’quvchilarda ongli, ravon, ifodali, tez o’qish malakalarini hosil qilishdir. O’qish darslari matematika, tabiat, odobnama, tarbiya fanlariga doir mavzularda beriladigan bilimlarni mustahkam o’qib olishlarida juda kata rol o’ynaydi. Chunki bola to’g’ri, ongli, ravon, tez o’qisagina matn mazmunini yaxshi anglab oladi. Hikoya va qissa qaysi tilda yozilgan bo’lsa, o’sha tilga oid so’zni to’g’ri yozishda, uning kelib chiqish tarixiga oid tarkib jihatidan tahlil qilganimizda ham o’quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. O’quvchilar og’zaki va yozma nutq malakasini mustahkamlashda so’zlab berish mashg’ulotlarini dars jarayonida ko’proq foydalanishga e’tiborni kuchaytirishimiz kerak. Og’zaki va yozma nutqini o’stirishda bolaning badiiy olamini yuksaltirishda qissa va hikoyalardan foydalanish alohida o’ringa ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Matchanov S., X.G’ulomova va boshqalar 4-sinf „O’qish“ darsligi „Yangiyo’l polygraph Servise“
2. Babaniskiy Yu. „Hozirgi zamon umumta’lim maktablarida o’qitish metodlari“ Toshkent „O’qituvchi“ 1990y B.89
3. I.A.Karimov Barkamol avlod – O’bekiston taroqqiyotining poydevori Toshkent “Sharq” 1997 y.
4. K. Qosimova, S.Matchanov, X.G’ulomova, Sh.Yo’ldoshova, Sh. Sariyev “Ona tili o’qitish metodikasi “ Toshkent “Nasir” nashiryoti 2009 y B.137
5. Arxiv.uz (Internet ma’lumotlari asosida).